

**"Jismoniy shaxslarni kreditlash tartibi"ga kiritilayotgan o'zgartirish va
qo'shimchalar**

AT "Aloqabank" Boshqaruvi yig'ilishining 2024-yil 1-iyuldagi 426-sonli bayoni bilan tasdiqlangan va 906-son bilan ro'yxatga olingan "Jismoniy shaxslarni kreditlash tartibi" (bundan buyon matnda "Tartib" deb yuritiladi)ga quyidagi o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilsin:

I. Tartibning "II. Kredit ajratish shartlari hamda qarz oluvchi, birgalikda qarz oluvchi va kafilga nisbatan qo'yiladigan talablar" bo'limidagi 2.20.1-bandi quyidagi d-kichik band bilan to'ldirilsin:

"2.20.1. Bankning o'z resurslari hisobidan ipoteka kreditlari mazkur Tartibning 2.5-bandida keltirilgan mezonlarga mos keluvchi jismoniy shaxslarga quyidagi maqsadlar uchun ajratiladi:

...

d) ulush kiritish asosida qurilishda ishtirok etish to'g'risidagi shartnomaga asosan ulushdorga topshiriladigan kvartira bo'yicha to'lovlarni to'lash."

II. Tartibning "II. Kredit ajratish shartlari hamda qarz oluvchi, birgalikda qarz oluvchi va kafilga nisbatan qo'yiladigan talablar" bo'limidagi 2.20.5-bandi quyidagi yangi tahrirda bayon etilsin:

"2.20.5. Ajratiladigan ipoteka krediti miqdori sotib olinayotgan (qurilayotgan, ta'mirlanayotgan, rekonstruksiya qilinayotgan) uy-joyning sotib olish (qurish, ta'mirlash, rekonstruksiya qilish) qiymatining, ulushdor jismoniy shaxslarga ulush kiritish asosida qurilayotgan kvartira bo'yicha to'lovlarni to'lash uchun ajratilayotgan hollarda esa, Ulush kiritish asosida qurilishda ishtirok etish to'g'risidagi shartnoma qiymatining **80 (sakson) foizidan** oshishi mumkin emas."

III. Tartibning "II. Kredit ajratish shartlari hamda qarz oluvchi, birgalikda qarz oluvchi va kafilga nisbatan qo'yiladigan talablar" bo'limidagi 2.20.9-bandining a-kichik bandi quyidagi yangi tahrirda bayon etilsin:

"2.20.9. Kredit **ta'minoti** sifatida kreditning maqsadida kelib chiqqan holda quyidagi ta'minot turlari qabul qilinadi:

a) ipoteka krediti hisobiga sotib olinadigan yoki ulush kiritish asosida qurilishda ishtirok etish to'g'risidagi shartnomaga asosan qurilayotgan va belgilangan tartibda qarz oluvchi mulkiga o'tadigan yakka tartibdagi uy-joy yoki ko'p kvartirali uydagi kvartira;"

IV. Tartibning "II. Kredit ajratish shartlari hamda qarz oluvchi, birgalikda qarz oluvchi va kafilga nisbatan qo'yiladigan talablar" bo'limidagi 2.20.11, 2.20.12, 2.20.15, 2.20.17-bandlari quyidagi yangi tahrirda bayon etilsin:

"2.20.11. Ipoteka krediti mazkur Tartibning 2.20.9-bandida belgilangan ta'minot turlari bo'yicha ta'minot hujjatlari rasmiylashtirilib garovga qabul qilingandan so'ng ajratiladi (*Bundan Bank tashabbusi bilan auksionda sotilgan uy-joylarni sotib olish uchun ajratiladigan ipoteka kreditlari hamda ulushdor jismoniy shaxslarga ulush kiritish asosida*

qurilayotgan kvartira bo'yicha to'lovlarni to'lash uchun ajratiladigan ipoteka kreditlari mustasno).

2.20.12. Sotib olinayotgan uy-joyi kelgusida garovga olish sharti bilan ipoteka krediti ajratilgan hollarda, ta'minot sifatida boshqa likvidli mol-mulk garovga olinishi lozim (bundan ulush kiritish asosida qurilayotgan ko'p qavatli uy-joydagi kvartira to'lovi uchi un ajratiladigan ipoteka kreditlari mustasno).

2.20.15. Ipoteka krediti uy-joyi sotib olish yoki ulush kiritish asosida qurilishda ishtirok etish to'g'risidagi shartnomaga asosan quriladigan ko'p qavatli uydagi kvartira bo'yicha to'lovni to'lash maqsadida sotuvchi shaxsning yoki quruvchi tashkilotning bankdagi hisobvarag'iga (sotuvchi shaxs jismoniy shaxs bo'lganda sotuvchining nomiga Bank tomonidan emissiya qilingan bank kartasiga yoki Bankda ochilgan omonat hisobvarag'iga) pul mablag'larini o'tkazish yo'li bilan amalga oshiriladi.

2.20.17. Qarz oluvchiga Bank tomonidan avvalgi ajratilgan ipoteka krediti bo'yicha qarzдорlik mavjud bo'lsa, unga **yangi ipoteka krediti ajratilmaydi** (Bitta kredit obyekti uchun ikkita kredit shartnomaga asosan ipoteka krediti ajratiladigan holatlar bundan mustasno)."

V. Tartibning "II. Kredit ajratish shartlari hamda qarz oluvchi, birgalikda qarz oluvchi va kafilga nisbatan qo'yiladigan talablar" bo'limi quyidagi 2.20.19, 2.20.20, 2.20.21-bandlar bilan to'ldirilsin:

"2.20.19. Bitta kredit obyekti uchun ikkita kredit shartnomasiga asosan ipoteka krediti ajratiladigan hollarda ikkinchi ipoteka krediti (jami kreditning bankning o'z resurs mablag'lari hisobidan ajratiladigan qismi) bo'yicha qarz oluvchiga qo'yiladigan talablar, shu jumladan skoring bo'yicha talablar birinchi ipoteka krediti (jami kreditning Iqtisodiyot va moliya vazirligi mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladigan qismi) bo'yicha belgilangan talablar bilan bir xil bo'ladi.

2.20.20. Ulush kiritish asosida quriladigan ko'p qavatli uylardagi kvartira bo'yicha to'lovlarni to'lash uchun ipoteka krediti ajratilishida **quruvchi tashkilot** O'zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi va uning hududiy tuzilmalari tomonidan yuritiladigan elektron platformadagi "Ulush kiritish asosida qurish uchun mablag'larni jalb etuvchi quruvchilarning **elektron ro'yxati**"ga kreditlash predmeti bo'lgan qurilish obyekti joylashgan qurilish majmuasi bo'yicha **kiritilgan bo'lishi** lozim.

2.20.21. Ulush kiritish asosida quriladigan ko'p qavatli uylardagi kvartira bo'yicha to'lovlarni to'lash uchun ipoteka krediti ajratilishida qarz oluvchi (ulushdor) va quruvchi tashkilot o'rtasida tuzilgan **Ulush kiritish asosida qurilishda ishtirok etish to'g'risidagi shartnoma** O'zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi va uning hududiy tuzilmalari tomonidan yuritiladigan **elektron platformada hisobga qo'yilgan** bo'lishi hamda shartnomaning har bir sahifasida yakka tartibdagi raqam va QR-kod (hisobga qo'yilganligi to'g'risida) mavjud bo'lishi lozim."

VI. Tartibga kiritilayotgan ushbu o'zgartirish va qo'shimchalar o'rnatilgan tartibda Bank Boshqaruvi tomonidan tasdiqlangan hamda ro'yxatga olingan kundan boshlab kuchga kiradi.

Boshqaruv Raisi v.b.



K.Irisbekova